

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti rektori
M.E. Po'latov
2024 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № FD-08-42
2024 yil
"29" 08

TAQQOSLAMA MENEJMENT

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:
Ta'lim sohasi:

400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
410000 – Biznes va boshqaruv

Magistratura
mutaxassisligi:

70410801 – Menejment

SAMARQAND-2024

Fan/modul kodi COMMAN5	O'quv yili 2024- 2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1. Fan nomi	Umumiy yuklama hajmi (soat)	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
Taqqoslama menejment	150	60	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>“Taqqoslama menejment” fani talabalarni jahondagi mavjud menejment modellari va iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari hamda turli mamlakatlar madaniyati – qadriyatlarini to'qnashuvlari va ularning ko'pmillatli kompaniyalar boshqaruvidagi ta'siri, xalqaro kompaniyalar miqyosidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida biznes operatsiyalar va jarayonlarni samarasini ta'minlashning bazaviy konsepsiya va uslublari bilan tanishtirish.</p> <p>Taqqoslama menejment fani – turli madaniy muhitda menejment amaliyotini tahlil qilish, tadqiq qilish va ijobiy jihatlarni boshqa madaniy muhitda qo'llashni o'rganadi.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi bo'lajak zamonaviy menejmlarning global iqtisodiy va madaniy muhitda madaniyatlararo kasbiy, ishbilamonlik va tadqiqotchilik munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish, turli mamlakatlarda menejment amaliyotining turli tafovutlarini aniqlash va ulardan boshqaruv samaradorligini ta'minlashda foydalana olishga o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Taqqoslama menejmentning nazariy asoslari</p> <p>Taqqoslama menejment fanining mohiyati, dolzarbligi, predmeti, maqsad va vazifalari. Taqqoslama menejment fanining zamonaviy usullari, yondashuvlar va rivojlanish shart-sharoitlari va bosqichlari. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda O'zbekistonda menejmentning yangi modelining shakllanishi va rivojlanish muammolari.</p> <p>2- mavzu. Menejment ilmiy maktablarining taqqoslama tahlili</p> <p>Menejmentning ilmiy boshqarish maktabi. Menejmentning ma'muriy boshqaruv maktabi. Menejment nazariyasining inson munosabatlari maktabi. Menejmentning axloqiy fanlar maktabi. Menejmentning boshqaruv ilmi maktabi. Menejmentning zamonaviy nazariyasi. Taqqoslama menejmentda madaniyat. Individualizm va kollektivizmning</p>		

<p>xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.</p> <p>10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. – 76 b.</p> <p>11. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G. Y. “Menejment va marketing asoslari”: (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2012 y. -258 b.</p> <p>12. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: darslik. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. -335 b.</p> <p>13. Ergashxodjayeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. T.: TDIU, 2011.-263 b.</p> <p>14. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. “Menejment nazariyasi”. Darlik. - T.: TDIU, 2013. - 433 b.</p> <p>Axborot manbalari (saytlar):</p> <p>1. www.economics.ru</p> <p>2. www.ved.ru</p> <p>3. www.set.uz</p> <p>4. www.uza.uz</p> <p>5. www.lex.uz</p> <p>6. www.ziynet.uz</p> <p>7. www.marketing.ru</p> <p>8. www.brand.uz</p>	<p>7. Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ <i>FD-08-42</i>)</p> <p>8. Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Tursunov F.U. – SamSI, “Menejment” kafedrasi dotsenti</p> <p>9. Taqrizchilar:</p> <p>1. Turdibekov H.I. – TDDU Samarqand filiali direktorining yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;</p> <p>2. Yunusov M.M.- “Kafolat” sug'urta aksionerlik jamiyati Samarqand viloyat filiali direktori</p>
--	--

	<ul style="list-style-type: none"> • Muhokama ishtirok etish • Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar) • Guruhlarda ishlash • Mustaqil ishlarni bajarish • Taqdimot tayyorlash • Turli darajadagi testlarni echish • So'rov o'tkazish
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xoliqulov A.N., Berdiqulov V.B., Ibodov K.M. Taqqoslama menejment: O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya", T.: 2021. 158 b. 2. Yuldashev N. Q., Umarxodjaeva M. G., Shanazarova G. B., Taqqoslama menejment.- O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi -T.: "YANGI NASHR", 2019. - 458 b. 3. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing management. 12 th edition. 2010 by Pearson Education, Inc.p. 815. 4. Ricky W. Griffin. Fundamentals of Management. Eighth Edition. 2015 Cengage Learning products are represented in Canada by Nelson Education, Ltd.p. 547. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b. 9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob

naomyon bo'lish jihatlari. Taqqoslama menejmentda madaniyat modellari.	
3-mavzu. O'zbekistonda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi	
A.Temur hukmronligi davrida boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. Zahiriddin Boburning boshqaruv to'g'risidagi g'oyalari. XX asrning boshlarida O'zbekistonda taqqoslama menejmentning nazariy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari.	
4-mavzu. Taqqoslama menejmentda madaniyat va rahbarlik uslubi	
Taqqoslama menejmentda madaniyat. Taqqoslama menejmentda boshqaruv modellari nazariyasi. Taqqoslama menejmentda institutsional yondashuv.	
5-mavzu. Taqqoslama menejment tizimida kommunikatsiya	
Kommunikatsiya jarayon sifatida. Kommunikatsiya kanallari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Verbal va noverbal kommunikatsiyalar.	
6-mavzu. Menejmentning AQSh modeli	
Menejmentning AQSh modeli. AQShda boshqaruvning asosiy tamoyillari. AQSh menejment modelining o'ziga xos jihatlari.	
7-mavzu. Menejmentning Umumevropa modeli	
Menejmentning Umumevropa modelining shakllanishi. Menejmentning Umumevropa modelining asosiy xususiyatlari. Menejmentning nemis modelining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. Menejmentning fransuz modeli shakllanishi o'ziga xos jihatlari. Buyuk Britaniya rivojlanishining makroiqtisodiy modeli xususiyatlari.	
8-mavzu. Menejmentning Germaniya milliy modeli	
Menejmentning nemis modeli (Modell Deutschland) nazariy jihatlari. M.Veber tomonidan ilgari surilgan boshqaruv g'oyasi. Menejmentning texnik tayyorgarligi. Nemis modelining institutsional omillarga bog'liqligi.	
9-mavzu. Menejmentning Fransiya milliy modeli	
Fransiya milliy modeli o'ziga xos jihatlari. Menejmentning fransiya modelidagi norasmiy aloqalar. Fransuz ishbilarmonlik amaliyotida menejmentning oratorlik mahorati.	
10-mavzu. Menejmentning Shvetsiya milliy modeli	
Menejmentning Shved modeli o'ziga xos jihatlari. Shved modelining yuqori darajada institutsionallashtirilganligi. Shved menejmentida nomarkazlashuv tamoyili.	
11-mavzu. Menejmentning Finlandiya milliy modeli	
Menejmentning Finlandiya milliy modelining afzalliklari. Finlandiya milliy modelidagi natijaga yo'naltirilgan boshqarish. Finlandiya boshqaruv maktabi asoschilari.	
12-mavzu. Menejmentning Shveytsariya milliy modeli	

<p>Shveysariya boshqaruv modeli. Shveysariya Konfederatsiyasining umumiy xususiyatlari. Shveysariyaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari. Shveysariya biznes madaniyati va boshqaruv uslubi.</p> <p>13-mavzu. Menajmentning Yaponiya modeli</p> <p>Yapon menajmentining asosiy xususiyatlari. Yaponiyada korxonalarining o'ziga xos tashkiliy tuzilmasi. Yaponiyaning sifatini boshqarish tajribasi. Yaponiya kompaniyalarida "dalillar asosida qaror qabul qilish" tamoyili.</p> <p>14-mavzu. Menajmentning Koreya modeli</p> <p>Koreya menajmenti milliy modellari ilg'or xorijiy amaliyotni o'rni. Koreya modelining muhim jihatlari. Koreya menajmentida davlat roli.</p> <p>15-mavzu. Menajmentning Xitoy modeli</p> <p>Zamonaviy xitoy menajmenti. Xitoy kompaniyalarida boshqaruvga oid turli yondashuvlar. Xitoy menajmentining konfutsianlik an'analarga asoslanganligi.</p> <p>III. Amaliy (yoki seminar voki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Taqqoslama menajmentning nazariy asoslari 2. Menajment ilmiy maktablarning taqqoslama tahlili 3. O'zbekistonda menajment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi 4. Taqqoslama menajmentda madaniyat va rahbarlik uslubi 5. Taqqoslama menajment tizimida kommunikatsiya 6. Menajmentning AQSh modeli. 7. Menajmentning Umumevropa modeli. 8. Menajmentning Germaniya milliy modeli 9. Menajmentning Fransiya milliy modeli 10. Menajmentning Shveysariya milliy modeli 11. Menajmentning Finlandiya milliy modeli 12. Menajmentning Shveysariya milliy modeli 13. Menajmentning Yaponiya modeli 14. Menajmentning Koreya modeli 15. Menajmentning Xitoy modeli <p>IV. Mutaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Taqqoslama menajment fanini o'rganishning asosiy yondashuvlari 2. Xorijiy mamlakatlarda taqqoslama menajment fanining rivojlanishi 3. O'zbekistonda menajmentning zamonaviy milliy modelining shakllanishi 4. F.Teylor nazariyasining mohiyati 5. Zamonaviy boshqaruv fani maktablari va asosiy g'oyalari 	
--	--

<ol style="list-style-type: none"> 6. Taqqoslama menajmentning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, xulqiy, empirik yondashuvlarini tushuntirib bering 7. Taqqoslama menajmentning Farmer-Richman modeli 8. Taqqoslama menajmentning Neganxdi-Prasad modeli 9. Taqqoslama menajmentning Rozali Tung modeli 10. Taqqoslama menajmentning O.Chayld Modeli 11. Taqqoslama menajmentning Kunts modeli 12. Madaniy tafvutlarning kommunikatsiya jarayoniga ta'sirini 13. Skandinaviya modelining o'ziga xos jihatlari 14. Koreya Respublikasida biznesni tashkil qilishning chebol modeli 15. Xitoy ishbilarmonlik amaliyotidagi guanxi (guan-si) tamoyilining afzallik va kamchilik jihatlari <p>Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha magistrantlar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, adabiyotlardan foydalanishi, keyin stadi ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida Magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xorijiy mamlakatlarda boshqaruvga zamonaviy yondashuvlar bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarini qo'llashning metodik shart-sharoitlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - iqtisodiy rivojlanish modellari tahlil qilish; menajment modellari o'rganish; turli mamlakatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; strategik, taktik va operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish; xorijiy kompaniyalarida yaratilgan ishchan muhitning yaratilish jarayonini o'rganish va shu asosida milliy kompaniyalarning korporativ kodekslarini mukammallashtirish; korxona faoliyatini baholash va samaradorlik mezon ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni bilishi; - kompaniyalarda ilmiy asoslangan tadqiqotlar asosida boshqaruv jarayonidagi xarajatlarni minimallashtirishga; xorijiy kompaniyalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish va yangi mahsulotlarni loyihalashtirish jarayonini; xorijiy ilg'or mamlakatlar menajment uslublaridan foydalanib, korxonalar faoliyatini taxlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi; - korxonalar o'zish strategiyasini ishlab chiqish; ishlab chiqarish tizimida operatsiyalar va jarayonlarni samarali boshqarish; xodimlarni rivojlantirish; ishlab chiqarish jarayonlarida barcha resurslardan oqilona foydalanish va harajatlarni minimallashtirish; yangi mahsulotlarni loyihalashda izlanishli faoliyatga jalb etish bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak. 	
<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Esse, tezis va maqolalar yozish • Interfaol keys – stadilar echish • Jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim 	